

**TALABALARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIM
KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH**

ODILOVA E'ZOZA ULUG'BEK QIZI

*Qarshi davlat universiteti Xalqaro qo'shma ta'limga
Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) 1-kurs talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili o'qitish metodikasi haqida, bugungi kunda ingliz tilini o'rGANISH muhim vazifalardan biriga aylanib qolayotganligi haqida, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berilayotganligi haqida va shu bilan birga bilim ko'nikmalarini oshirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: EFL, professional, ko'nikma, texnologik, kompyuterlar, proektor, telefonlar, planshetlar, akksesuarlar, kommunikativ, kompetensiya, an'anaviy, interfaol, electron, takomillashtirish, chora-tadbir.

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi proffessional ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rGANISHGA bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bugungi kunda turli darajadagi til bilimiga ega kishilar uchun o'quv materiallarining katta to'plamlari mavjud. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi.

Albatta bugungi kunda va bu davrda ingliz tilini o'qitish usullari va texnologik vositalari ham takomillashib bormoqda. Chunki, kompyuterlar, telefonlar, maxsus planshetlar va mayda akksesuarlar ham ko'payib ketdi.

Inliz tilini chet tili sifatida o'rGANISH (EFL) ikkinchi til sifatida o'rGANISH (ESL)

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

dan farq qiladi. Chunki dunyo bo'ylab ba'zi davlatlar borki, ingliz tili ikkinchi rasmiy til hisoblanadi va barcha sohalarda, xususan ta'lim sohasida ham ingliz tilini o'rgatish yoki o'rganish jarayonida mana shu xususiyatga ahamiyat beriladi. Inliz tilini chet tili sifatida o'rganish (EFL) ikkinchi til sifatida o'rganish (ESL) dan farq qiladi. Chunki dunyo bo'ylab ba'zi davlatlar borki, ingliz tili ikkinchi rasmiy til hisoblanadi va barcha sohalarda, xususan ta'lim sohasida ham ingliz tilini o'rgatish yoki o'rganish jarayonida mana shu xususiyatga ahamiyat beriladi.

Albatta Prezidentimizning tashabbuslari bilan ushbu ingliz tili chet tili sifatida maktablarda, boqchalarda va oliy ta'lim muassassalarida ham keng tarzda o'qitilib o'rganilib, o'qitilib kelinmoqda. Pedagogikaning rivojlangan tajribalari va yutuqlarini ta'limga tatbiq etish bugungi kunning muhim shartlaridan biridir. Hozirda o'qituvchi o'z faoliyati davomida qo'llashi mumkin bo'lgan ulkan tajriba bazasi shakllangan va u kundankunga boyib bormoqda. Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF 4947- son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim standardlarini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ 2909-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-may "Uzluksiz ta'lim tiziminining chet tillar bo'yicha Davlat Ta'lim Standardlarini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ 1875-tonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar amalga oshirilgan. Butun jahon hamjamiyatiga munosib o'rinn egallashga harakat qilayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyati juda kattadir. Bundan tashqari, xorijiy tillarni tez va oson o'rganish uchun ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Hattoki ushbu til keng qo'llanilib kelinyapti. Axborot texnologiyalarida ham kompyuterlar, telefonlar, ijtimoiy tarmoqlarda va televidiniyalarda ham keng tarzida hamda turli usul va uslubiyatlarda ham o'qitilib mashg'ulotlar ham o'tilyapti. Bundan maqsad yosh bilimga chanqoq bolalarni, o'quvchilarni hamda bo'lajak pedagoklarni ham bilim saviyalarini mustahkamlashdir. Hozirgi kunda yosh kadrlarni tayyorlashda va turli kasb egalarini yetishtirishda ham ingliz tilini o'rgatish ham kerak va zarurdir.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish ham bugungi kunda davr talabi ham bo‘lib qoldi. Bu tilni texnologiyalarda, ilmiy ishlarda va hattoki turli kasblar tanlashda huam kerakdir. Chunki ingliz tilida gapirishda insonning nutqi rivijlanib shakillanadi, o‘qishda esa o‘qish va o‘rganish, eslab qolish, tushunish, anglash qobiliyati ham salohiyati ham shakillanadi.

Ta’limiy o‘yinlar til o‘rganuvchilar orasida sevimli ish turi hisoblanadi. O‘ynash va o‘rganish biz uchun qarama-qarshi holat sifatida ko‘rinishi mumkin, lekin bu chet tilini o‘rganish va o‘rgatishning eng oson yo‘lidir. O‘ynash bolalarcha hech qachon jiddiy qabul qilinmaydi, ammo o‘rganish jiddiy, ko‘p mashaqqat talab qiladigan holat hisoblanadi. Har bir pedagog bilishi shart bo‘lgan narsa shuki, o‘yinlar bolalar miyasida, ijobjiy taassurot qoldiradi va shu orqali bolada tilga qiziqish uyg'onadi. Har birimiz o‘yinlar bolalar rivojlanishi uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini bilamiz va o‘yinlar, shu bilan birlgilikda qiziqarli videoroliklar nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham tobora ko‘proq ta’sir qilmoqda.

Yosh avlod ta‘lim tarbiyasi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida katta e‘tibor qaratib kelingan masalalardan biridir. Kelajak avlod har tomonlama barkamol tarbiyalanishi, har sohada yetuk mutaxassis bo‘lishi uchun chet tillarini mukammal o‘rgatishimiz, dunyoqarashini kengaytirishimiz lozim. Akademik litseylarda orijiy tillarni o‘qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchining nutqiy faoliyati kommunikativ kompetensiyani har tomonlama rivojlantirishga asos bo‘la oladi. Ma‘lumki, kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Hech kimga sir emaski, mamlakatimiz o‘quvchilarining ko‘pchiligidagi chet tillari orasida ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor kuchli. Amaliyat shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilini o‘rganayotgan to‘rt kishidan uchtasi ingliz tilini birinchi xorijiy til sifatida o‘rgangan va olingan tajriba, bilim, ko‘nikmadan foydalangan holda ikkinchi chet tiliga o‘tilishi va uni o‘rganishni osonlashtirishi mumkin.

Har bir tilni o‘rganishda 4 muhim ko‘nikma bo‘lganidek ingliz tilida ham

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mavjud: O‘qib tushunish, Eshitib tushunish, Yozish va Gapirish muhim rol o‘ynaydi. Bu ko‘nikmalar shakllanishi uchun esa o‘rganuvchidan Grammatik baza talab qilinadi.

Albatta chet tilini bilgan holda O‘zbekistonimizni ham chet davlatlarga tanitamiz. Chet tilini bilish orqali sayohat qilish, o‘rganish, muloqot qilish, kasallikkardan saqlanish, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari, miya tuzilishini o‘zgartirish va diqqatni nazorat qilish kabi imkoniyatlarga ega bo‘lasiz. Ta’lim shunday jarayonki, uning natijasi 1-2 yilda emas, balki bir necha yillarda, 10-12 yilda ko‘rinadi. Otabobolarimizning “Til bilgan – el biladi”, “Yoshlikda olgan bilim-toshga o‘yilgan naqsh” degan gaplari bejizga emas.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, maktablarda xorijiy til o‘qitish metodikasi fani o‘qitish jarayonida talimning an’anaviy va interfaol o‘qitish usullardan ishlatiladi Amaliy mashg‘ulotlar og‘zaki va yozma tarzda tashkil etilishi ko‘zda tutiladi. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitish mobaynida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan, shuningdek, ko‘rgazmali slaydlarni kompyuter yordamida namoyish etish, elektron materiallarni proektor yordamida tasvirga chiqarish vositalaridan ishlatiladi. Fanning amaliy mashg‘ulotlarida talimning innovatsion, interfaol metodlari, hamda ekspress-so‘rovlari, aqliy hujum, ajurli arra, munozara, kichik guruhlarda ishlash, menu, debat kabi metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli farmoni.
2. 2021-yil 19-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ- 5117-sон “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/- 5426736>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim muassasalarida chet tillar o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 610-sон qarori.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

4. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun ingliz tili o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: J. J. Jalolov, M. T. Irisqulov. – Xalq ta’limi. – №4 – Toshkent, 2013. – 44 b.
5. Bekmuratova.U.B. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil.
6. Одилов.Ё.Ж. //[Informatsionno-kommunikatsionniye texnologii \(ikt\) v obrazovanii. Ikt kompetentnost v professionalnom razvitiu kadrov](#)// Scienceweb academic papers collection, 2019. 2181-1784 B.
7. Turayev S.J. Povышениye kachestva professionalnoy deyatelnosti studentov s privlecheniyem k nauchnomu proyektu. XII Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii “Innovatsii v texnologiyax i obrazovanii”, 21-22-marta 2019 g, Filial KuzGTU v g. Belovo. – Belovo: 2019. – Ch. 4. -240-241 s.
8. Turaev S.J. (2019) “Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics” Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 10 , Article 55. –P. 292-297.